

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ozoda Tolipova

Qo'qon DPI o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6628539>

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, kreativligini oshiruvchi xalqaro standartlar yordamida amalga oshiriladigan ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, PISA, PIRLS, ijod, kreativ, kreativlik, pedagog, yaratuvchanlik.

Hozirgi kunga qadar "Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi" va "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" hamda "Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi" o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021-yilda boshlab PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'rilar ekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ fikrlashga nimalar kiradi? Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli – harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir.

Kreativlik inglizcha "create"dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi.

Pedagogikada kreativlik muammoli vaziyatlar nuqtai nazaridan o'rganiladi va umumiy holda uzluksiz tinimsiz o'zgarib turadigan vaziyatlarda son-sanoqsiz vazifalarni yechish qobiliyatini – turli vaziyatlarda qarorlar qabul qila olish malakasini, hamda quyidagi kompetentsiyalarning to'plamini ifodalaydi:

o'z ehtiyojlari va manfaatlari/qiziqishlarini bildirish;

axborotning boshqa manbalarini topa olish malakasi;

turli pedagogik vaziyatlarda qarorlar qabul qila olish malakalari;

muammoni yechishning (hal qilishning) boshqalarga o'xshamaydigan (original) usullarini o'ylab topish (ishlab chiqarish) qobiliyati.

Kreativlik tushunchasini psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning predmeti deb hisoblash qabul qilingan bo'lsada, uning talqinlari boshqa fanlarda ham

keltirilgan, va ular orasida falsafa va pedagogikadagi definitsiyalar (ta'riflar) bizning tadqiqotimiz uchun eng ko'p qiziqish uyg'otadi.

Falsafa nuqtai nazaridan, kreativlik ijodiy fikrlashga bo'lgan qobiliyatni, ijodiy yaratuvchanlikning ibtidosi, odamlarning tabiiy va ijtimoiy olamni inson maqsadlari va ehtiyojlariga muvofiq real voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'zgartiruvchi faoliyatini ifodalaydi.

Metodologik yondashuvning vakillari ijod(korlik)ni muammoli vaziyatning funktsiyasi deb tushunadilar va kreativlikka vazifani yechish (hal qilish) jarayonining xususiyatlari orqali ta'rif beradilar. Mamlakatimiz olimlarining asarlarida, ijod(korlik) ijtimoiy hodisa (fenomen) va rivojlanish mexanizm sifatida, tabiat va jamiyatga xos atribut/sifat sifatida tushuniladi. Ijod(korlik)ning asosiy xarakteristikasi nimadir yangi, boshqalarga o'xshamaydigan (original) narsa yartish qobiliyatidan iborat.

Ta'limning asosiy ahamiyati o'quvchilarni jamiyatda yutuqqa yerishishlari uchun kerakli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarni rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya bilan ta'minlaydi.

O'qituvchilar kreativ fikrlash qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari haqida tushunishlari kerak. Falsafa nuqtai nazaridan, kreativlik ijodiy fikrlashga bo'lgan qobiliyatni, ijodiy yaratuvchanlikning ibtidosi, odamlarning tabiiy va ijtimoiy olamni inson maqsadlari va ehtiyojlariga muvofiq real voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'zgartiruvchi faoliyatini ifodalaydi.

Kuzatuvlarimiz davomida angladikki, kreativlik tushunchasi cheksiz kengayadi va natijada noaniqlik hosil qiladi. Shuning uchun, kreativlik haqida gapirganda, hech bo'lmaganda biz qanday kreativlik haqida fikr bildirishimizni ko'rsatishimiz kerak: kreativlik qobiliyat sifatida yoki kreativlik shaxs xususiyati sifatida (shaxs-kreativ). Aks holda, bu butunlay tartibsizlikni yuzaga keltiradi. Ba'zi mualliflar ijodkorlik haqida kognitiv jarayon, tafakkur turi sifatida, boshqalari bu shaxsiyat turini anglatadi deb izohlasa, yana boshqalar har ikkala yondashuvni ham birlashtiradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, biz ta'lim jarayoniga nisbatan talabaning kreativligi deganda uning noodatiy fikrlari, kutilmagan vaziyatga nisbatan ijobiy javob qaytara bilishi, har qanday savolga tayyor turishi va boshqalarga nisbatan eng mukammal natijani ko'rsatishi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchisi sifatida yangi g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyat egasi deb ta'rifladik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: - 2015, - 72
2. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ...diss. T.:
3. Karimova V, Nishanova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish // J. Xalq ta'limi, 2001. № 3-6.-B.-64-69.
4. Keyran L. F. Obrazovatel'nye metody v uchebnom protsesse.- M.:Logos,2003.-195 s.
5. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. – M.: Znanie, 1989. - 75 s.
6. Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik asoslari: - Pedagogika fanlari nomzodi ilm.darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi avtoreferati. – T. 2002.-21 b.